




**TOSHKENT VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**TOSHKENT VILOYATIDA
QURILISH ISHLARI**

**2024- YIL
YANVAR-MART**

2024- yilning yanvar-mart oylarida, Toshkent viloyatida jami 3563,3 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 111,1%ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmining tarkibi, %da


Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.





2024- yil 1-aprel holatiga ko'ra qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar, *birlikda*

Yillar kesimida soni



1368

•Bino va inshootlar qurish

365

•Fuqarolik obyektlarini qurish

910

•Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 2023- yilning shu davriga nisbatan 87,7 foizni tashkil etdi.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo'nalishi 51,8 foiz ulushni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 87,4 foizga yetdi;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 13,8 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 105,2 foizga yetdi;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi esa 34,4 foiz ulushni va o'tgan yilga nisbatan 82,6 foizni tashkil etdi.



Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, *birlikda*

	Holatiga:		o'tgan yilga nisbatan, %da
	01.04.2024- y.	01.04.2023- y.	
Toshkent viloyati	2643	3014	87,7
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	112	144	77,8
Olmalik	121	140	86,4
Angren	152	185	82,2
Bekobod	110	126	87,3
Ohangaron	94	112	83,9
Chirchiq	285	274	104
Yangiyo'l	69	83	83,1
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	54	64	84,4
Ohangaron	52	67	77,6
Bekobod	69	86	80,2
Bo'stonliq	117	111	105,4
Bo'ka	83	116	71,6
Quyichirchiq	54	73	74
Zangiota	214	218	98,2
Yuqorichirchiq	165	186	88,7
Qibray	280	307	91,2
Parkent	85	99	85,9
Piskent	57	56	101,8
O'rta Chirchiq	138	146	94,5
Chinoz	80	109	73,4
Yangiyo'l	115	148	77,7
Toshkent	137	164	83,5



2024- yil 1-aprel holatiga ko'ra Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, %da


Qibray (10,6)



Chirchiq sh. (10,8)



Zangiota (8,1)





Qurilish ishlari 2024- yil yanvar-mart oylari uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	shu jumladan:		
		yirik qurilish tashkilotlari	kichik va mikrofirmalar	norasmiy sektor
Toshkent viloyati	3563,3	665,1	1842,3	1055,9
shaharlar:				
Nurafshon	148,6	7,7	121	19,9
Olmalik	535,7	413,7	92,1	29,9
Angren	98,7	7,9	58,2	32,6
Bekobod	150,2	1,8	123,2	25,2
Ohangaron	38,3	9,3	8,1	20,9
Chirchiq	133,7	1	108,6	24,1
Yangiyo'l	117,2	0	106,8	10,4
tumanlar:				
Oqqo'rg'on	61,4	0	34,5	26,9
Ohangaron	111,8	5,8	64,5	41,5
Bekobod	34,2	3,7	12,2	18,3
Bo'stonliq	148,1	68,8	30,9	48,4
Bo'ka	83,2	1,7	50,5	31
Quy Chirchiq	125,5	0	83,5	42
Zangiota	334,2	0	251,1	83,1
Yuqori Chirchiq	222,6	5,1	198,8	18,7
Qibray	378,7	95,8	141,5	141,4
Parkent	88	0,5	55,9	31,6
Piskent	97,6	17,8	50,3	29,5
O'rta Chirchiq	182	10,9	123,9	47,2
Chinoz	72,3	0	29,1	43,2
Yangiyo'l	124,5	9,9	32	82,6
Toshkent	276,8	3,7	65,6	207,5



2024- yilning yanvar-mart oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 665,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2023- yilga nisbatan 114,6 %ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2023- yildagi ko'rsatkich darajasidan 0,7 % punktga ko'payib, 18,7%ni tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-mart oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 51,7 %i to'g'ri kelib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 1,8 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023- yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 106,8 %ni tashkil etgan holda 1 842,3 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi, %da

51,7

2024- yil
Yanvar-mart

53,5

2023- yil
Yanvar-mart



MA'LUMOT UCHUN: joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Zangiota tumani (251,1 mlrd.so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 13,6 %), Yuqori Chirchiq (198,8 mlrd.so'm yoki 10,8 %) Qibray tumani (141,5 mlrd.so'm yoki 7,7 %) ga to'g'ri keldi.



Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi 29,6 tashkil etdi yoki 1055,9 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2023- yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 116,8 %ni tashkil etdi.

2023- yil
yanvar-mart

830,8
mlrd. so'm


2024- yil
yanvar-mart

1055,9
mlrd. so'm

28,4%

29,6%

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **90,9** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **3472,5** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **2,6 %** va **97,4 %**ni tashkil etdi.



Davlat mulki



Nodavlat mulk

Ma'lumot uchun: Qurilish biror inshootni tayyorlash jarayoni, shuningdek shunday jarayon ketayotgan joydir. Qurilish murakkab jarayon bo'lib, unda bir necha vazifalar amalga oshiriladi. Qurilish — moddiy ishlab chiqarishning yirik sohalaridan biri; turli maqsadlardagi bino va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish; ishni yuri-tish uchun foydalaniladigan hudud bilan birga qurilayotgan bino (inshoot); keng ma'noda yaratuvchilik jarayoni. Tugallangan va foydalanishga topshirish uchun tayyorlangan ishlab chiqarish korxonalari, turar joylar, jamoat binolari, inshootlari va boshqa obyektlar Qurilish mahsu-lotlari hisoblanadi.

Qurilish O'zbekiston Respublikasidagi moddiy ishlab chiqarishning eng muhim tarmoqlaridan birini tashkil etadi. Respublika iqtisodiyotida yalpi ichki mahsulot tarkibida salmog'iga ko'ra Qurilish sanoat va qishloq xo'jaligidan keyin 3-o'rinda turadi.

Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi

Aloqa telefoni: (71) 202-86-70